

✚ Yosh avlodga moliyaviy bilimlarni oshirish uchun maxsus dasturlar joriy qilish.

Aholining moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lishi KO'B sub'ektlarining rivojlanishiga, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka xizmat qiladi. Kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va moliyaviy ma'lumotlarni ommaviylashtirish orqali tadbirkorlar o'z bizneslarini barqaror va samarali yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish muhim masala hisoblanadi.

DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA IJTIMOY SOHANI RIVOJLANTIRISH

Vosiqov Abduvahob Ravshan o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchi

Davlat, aholi, biznes va fuqarolik institutlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish va rivojlantirish "O'zbekiston-2030" Strategiyasida belgilangan innovatsion rivojlanish uchun institutsional muhitni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Davlat va xususiy sektorning (tadbirkorlik subyektlari) hamkorligida ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilmaviy sohalarda amalga oshirilgan loyihalar, ishlab chiqariladigan tovarlar va ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlarning turlari va sifatining oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Yaponiya, Koreya, Kanada, Germaniya, Bangladesh kabi davlatlarning mazkur sohadagi yutuqlari yaqqol tajriba hisoblanadi. Darhaqiqat keyingi yillarda mamlakatimizda DXSh munosabatlarini rivojlantirish va sohada halqaro amaliyot tajribalarini bosqichma-bosqich joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2019 yilda O'zbekistonda Davlat xususiy sheriklik to'g'risidagi qonun¹⁸² qabul qilinib, bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqqan holda takomillashtirib kelinmoqda. Qonunga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik bu davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi davlat-xususiy sheriklik sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi.

Qonun bilan davlat-xususiy sheriklik taraflarining huquq va majburiyatlari belgilab berildi. Davlat-xususiy sheriklik loyihasi davlat organi (tashkiloti) va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkor yoxud yuridik shaxs tomonidan tashabbus qilinishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning amal qilish muddati uch yildan kam bo'lmasligi va qirq to'qqiz yildan oshmasligi kerak. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari o'z majburiyatlarini

¹⁸² O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni

bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgar bo'ladi. 2017-2024 yillar mobaynida respublikamizda ijtimoiy sohani qo'llab quvvatlash hamda DXSh asosida moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga doir 20 dan ortiq me'yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilindi. So'nggi yillarda ijtimoiy sohani DXSh asosida rivojlantirishga doir qabul qilingan muhim hujjatlardan biri 2024 yil 30 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-308-son qarori¹⁸³ hisoblanadi. Qarorga asosan 2024-2030 yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sohani DXSh asosida rivojlantirish uchun 6084,0 mln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar ajratish ko'zda tutilgan (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ijtimoiy sohani moliyalashtirish bo'yicha eng ko'p ulushni maktab ta'limi tashkil etmoqda. 2024-2030 yillarda maktab ta'lim bo'yicha davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan muhim loyihalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Osiyo taraqqiyot banki ko'magida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jami 14 ming o'rinli 13 ta umumta'lim maktabini qurish va jihozlash.

2. Xalqaro moliya korporatsiyasi ko'magida Andijon va Samarqand viloyatlarida 10 000 o'rinli 15 ta umumta'lim maktabini qurish va jihozlash.

3. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki maslahat ko'magida Farg'ona va Namangan viloyatlarida 10 000 o'rinli 15 ta umumta'lim maktabini qurish va jihozlash.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida xususiy tashabbuskorlar bilan jami 66 ming o'rinli 100 ta umumta'lim maktabini qurish va jihozlash.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashabbuskor kompaniyalar bilan birgalikda 2027 yildan boshlab har yili kamida 100 tadan (jami 450 ta) umumta'lim maktablarini qurish va jihozlash.

1-jadval. 2024-2030 yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy soha bo'yicha loyihalar dasturi¹⁸⁴

No	Hududlar	Loyiha bitimini imzolash muddati	Qiymati (mln. AQSh doll)
1. Maktabgacha ta'lim			
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri	2025 yil IV chorak	75,0
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri	2026-2030 yillar	335,0
2. Maktab ta'limi			
3.	Toshkent shahri, Toshkent viloyati	2025 yil II chorak	97,0
4.	Andijon viloyati, Samarqand viloyati	2026 yil I chorak	75,0
5.	Farg'ona viloyati, Namangan viloyati	2026 yil I chorak	75,0

¹⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030 yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-son qarori.

¹⁸⁴ <https://lex.uz/uz/docs/7089556> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

6.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri	2026 yil I chorak	570,0
7.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri	2027-2030 yillar	3300,0
3. Oliy ta'lim			
8.	Toshkent shahri	2025 yil IV chorak	176,0
4. Sog'liqni saqlash			
9.	Farg'ona viloyati, Samarqand viloyati, Xorazm viloyati	2025 yil IV chorak	30,0
10.	Farg'ona viloyati	2025 yil IV chorak	306,0
11.	Buxoro viloyati, Andijon viloyati	2027 yil IV chorak	250,0
12.	Toshkent shahri	2025 yil I chorak	500,0
13.	Samarqand viloyati	2026 yil II chorak	250,0
14.	Jizzax viloyati, Namangan viloyati, Qashqadaryo viloyati	2027 yil IV chorak	45,0

Amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijasi sifatida 2025 yilning yanvar oyi holatiga 1 million 200 ming o'rinli xususiy bog'chalar ochilgani tufayli qamrov darajasi 77 foizga chiqdi. Oliy ta'lim tizimida 57 ta loyiha samarasida 29 ming talaba yotoqxona bilan ta'minlandi. 2024 yil mobaynida O'zbekistondagi 108 ta davlat oliy ta'lim muassasalarida (OTM) jami 338 ta talabalar turar joyi (TTJ) mavjud bo'lib, ularning sig'imi 127792 o'rindan iborat. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2026 yilda esa, davlat OTMlarining yotoqxonalar quvvati 182616 o'ringa yetkazilib, talabalarni joy bilan ta'minlanish qamrovini 68 foizdan oshirish rejalashtirilgan¹⁸⁵. Tibbiyotda otolaringologiya, diagnostika, laboratoriya kabi xizmatlarda xususiy sektor ulushi ancha yuqori bo'lmoqda. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Andijon va Samarqand shaharlarida ko'p tarmoqli zamonaviy klinikalar qurish bilan birga, hududlardagi markaziy shifoxonalarda tibbiyot bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar xususiy sektorga o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar mahalliy budjetining orttirib bajarilgan qismini o'rnatilgan tartibda DXSh loyihasini moliyalashtirish uchun vakolatli hisoblanadi. Shu asnda respublika hududlarida ham infratuzilmaning rivojlanishiga, ish o'rinlarining yaratilishiga, iqtisodiy va ijtimoiy soha obyektlarining yuqori sifatli texnologiyalar va xizmatlar bilan ta'minlanishiga olib keladi. Fikrimizcha, davlat va investor hamkorligida, sherikligida amalga oshirish taklif etilayotgan DXSh loyihalarini amalga oshirish natijasida Davlat byudjeti xarajatlarning kamayishiga, investitsiya oqimining oshishiga, iqtisodiy globalizatsiyaning rivojlanishiga, yangi – yangi raqobatbardosh tovarlar, ishlar va xizmatlarning ishlab chiqarilishiga va eng asosiysi mamalakat yalpi ichki mahsuloti hajmining oshishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

¹⁸⁵ <https://stat.edu.uz/> - Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari.